IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: DB91859058

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2025 yil “4”dekabr **02-28/29794-son**

Vazirlik tasarrufidagi tibbiyot oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi
(ma’lumot uchun)

Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 25-noyabrdagi 01-05/4883-son xati bo‘yicha “Taraqqiyot uchun tadqiqot” amaliy tadqiqotlar tanlovida ishtirok etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–200-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 9-martdagi 133-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 20-noyabrdagi “Ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturlari doirasida bajariladigan amaliy tadqiqotlar tanlovini e’lon qilish to‘g‘risida” 209-son buyrug‘i ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan **“Taraqqiyot uchun tadqiqot” amaliy tadqiqotlar tanlovi** davlat dasturlari va konsepsiyalarda belgilangan vazifalarni bajarish uchun ilmiy yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Tanlovga taqdim etiladigan loyihaning amal qilish muddati 3 yilgacha; loyihani amalga oshiruvchi ilmiy jamoaning o‘rtacha yoshi, qoida tariqasida, 45 yoshdan oshmasligi kerak.

Tanlovga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar tegishli vazirlik va idoralarning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lgan taqdirda qabul qilinadi.

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha jami beshta mavzu e’lon qilingan:

1. Bolalarda ichak mikrobiotasining shakllanishida ko‘krak suti bilan oziqlantirish davomiyligining ahamiyati va o‘rnini aniqlash hamda o‘tkir ichak infeksiyalarining erta oldini olishga oid yondashuvlarni takomillashtirish.

2. Bolalarda ko‘krak suti bilan oziqlantirishning tug‘ma immunitetga hamda ichak mikrobiotasidagi mahalliy va fakultativ/tranzitor E.coli to‘plamining shakllanishiga ta’sirini aniqlash.

3. O‘zbekiston Respublikasida urologik infeksiyalar va ularning bakteriologik peyzaji, rezistentligini tahlil qilish va baholash orqali siydik yo‘llari infeksiyalarini davolash usullarini takomillashtirish.

4. Respublika aholisi o‘rtasida B, C, D virusli gepatitlar va ularning uzoq muddatli asoratlarining tarqalishini baholash.

5. Neyron qo‘zg‘aluvchanlik disregulyatsiyasi sharoitida miya hujayralarini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish.

Shu munosabat bilan, e’lon qilingan mavzular orasidan tashkilotingizning ilmiy salohiyatiga mos keladigan mavzuni tanlab, loyiha talabnomasini (asosiy g‘oyasi, maqsadi, kutilayotgan natijalarini) tayyorlab, Ilmiy kengash qarori bilan **2025-yil 15-dekabr sanasiga qadar** Sog‘liqni saqlash vazirligining Fan-ta’lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etishingizni so‘raymiz.

Yuqorida keltirilgan talablarga muvofiq tayyorlanmagan hamda belgilangan muddatlardan keyin yuborilgan loyihalar **ko‘rib chiqilmasligi** va vazirlikning **qo‘llab-quvvatlash xati** taqdim etilmasligi bildiriladi.

Eslatma: Tanlovga taqdim etilgan loyihalarning har bir bosqichda ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar loyiha rahbarlarining Davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasidagi (loyiha.ilmiy.uz) shaxsiy kabinetlarida taqdim etib boriladi.

Tanlovga taqdim etiladigan loyiha talabnomalari faqat ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi (ScienceID) identifikatsiyasiga ega foydalanuvchilar tomonidan davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasi (**loyiha.ilmiy.uz**) orqali qabul qilinadi.

“ScienceID” dan ro‘yxatdan o‘tish id.ilmiy.uz tizimi orqali amalga oshiriladi. Loyihaning ijrochilari yoki loyiha rahbari bo‘lmagan shaxslar tomonidan taqdim etilgan, ijrochi tashkilot rahbarining mas’ul o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanmagan loyiha talabnomalari tanlovga qabul qilinmaydi.

“Taraqqiyot uchun tadqiqot” amaliy tadqiqotlar tanlovi uchun loyihalarni elektron shaklda Davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasi (loyiha.ilmiy.uz) orqali 2025-yil 20-noyabrdan **2025-yil 20-dekabr soat 23:55 ga qadar** qabul qilinadi.

Vazirning birinchi o‘rinbosari **A. Boboyev**

Ijrochi: D.Abdullayeva
Tel: +998712031519